

YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 8 283,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,3 % ga o'sdi.


YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 112,1 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	7 083,7	8 283,6	104,3
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 893,8	8 015,4	104,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	189,9	268,2	109,9
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 893,8	8 015,4	104,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 983,2	2 287,9	101,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 722,8	2 081,3	109,4
	sanoat	1 262,8	1 514,3	107,5

		Mlrd. so‘m		O‘ <i>si</i> sh sur‘atlari, o‘ <i>tg</i> an yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	460,0	567,0	114,5
	Xizmatlar	3 187,8	3 646,2	103,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	644,8	766,0	105,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	592,0	674,4	101,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 951,0	2 205,8	103,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 094,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘*tg*an yilning mos davriga nisbatan 2,5 %ga yuqoridir.












Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,8 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,2 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,2 %ni, sanoat tarmog‘i 18,9 %ni, qurilish 7,1 %ni va xizmatlar sohasi 45,5 %ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan %da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,3	96,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	3,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	28,8	28,5
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	25,0	26,0
	sanoat	18,3	18,9
	qurilish	6,7	7,1
	Xizmatlar	46,2	45,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9,4	9,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,6	8,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	28,2	27,5




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan %da)

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,5 %), sanoatda – 107,5 % (18,9 %), qurilishda – 114,5 % (7,1 %), xizmatlar sohasida – 103,3 %ni (45,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,7 % (9,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 101,9 % (8,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 %dan (27,5 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 2,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi
(jamiqa nisbatan %da)




2021- yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 112,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida –114,1 % va sanoatda – 111,6 % qayd etildi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 65,2 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 66,6 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.